

JALOLIDDIN MANGUBERDI – MOHIR SARKARDA

Ibadullayeva Surayyo Azimboy qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix yo`nalishi talabasi

Tel: +998333730122

E-mail: surayyoibadullayeva8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15811373>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Anushteginiylar sulolasidan bo`lgan so`nggi Xorazmshoh sulton Jaloliddin Manguberding taxtga kelishi, ko`chmanchi va yovuz mo`g`ul qo`shiniga qarshi kurashlari yoritiladi. Shuningdek uning sarkardalar bilan aloqalari, kelishmovchiliklar, mo`gular bilan bo`lgan yirik janglari bilan tanishib o`tamiz.

Kalit so`zlar: Alovuddin Muhammad, Turkon xotun, Jaloliddin Manguberdi, Chingizxon, Parvon jangi, Sind.

Аннотация: В этой статье рассматривается восшествие на престол последнего хорезмшахского султана Джалалуддина Мангуберди из династии Ануштегинидов, его борьба с кочевой и злой монгольской армией. Мы также познакомимся с его отношениями с командирами, разногласиями и крупными сражениями с монголами.

Ключевые слова: Аловuddin Мухаммад, Туркон Хотун, Джалалуддин Мангуберди, Чингисхан, Парванская битва, Синд.

Abstract: This article covers the accession to the throne of the last Khorezmshah Sultan Jalaluddin Manguberdi from the Anushteginid dynasty, his struggles against the nomadic and evil Mongol army. We will also get acquainted with his relations with the commanders, disagreements, and major battles with the Mongols.

Keywords: Alovuddin Muhammad, Turkon Khotun, Jalaluddin Manguberdi, Genghis Khan, Parvan Battle, Sindh.

Sulton Jaloliddin Manguberdi tarix sahnasida o`chmas iz qoldirgan hukmdorlardan biri hisoblanadi. Xorazm hukmdorlari tarixdan Xorazmshohlar nomi bilan mashxur bo`lganlar. Shu qatorda Sulton Jaloliddin Manguberdi ham Anushteginiylar (1097-1231) sulolasining so`ngi hukmdori sifatida Xorazmshoh unvonida davlatni boshqaradi. Uning davrida Xorazmshohlar davlati chuqur inqirozda bo`lib, Chingizxon hujumlari avj olgan edi.

Xorazmshoh sulton Alovuddin Muhammad (1200-1220) avvaldan taxt vorisi qilib Qutbiddin O`zlog`shohni tayinlagan edi. Bu Turkon xotun va uning atrofida qilargani orzu-istaklari ifodasi sifatida amalga oshgan. Lekin sulton kasalligi kuchaygani sababli hamda onasi Turkon xotunning asirlikka tushganini eshtgach Jaloliddin hamda uning ukalari O`zlog`shoh va Oqshohni yoniga chaqirib shunday deydi: "Mamlakatda hukmdorlik ishlari uzildi, davlat asoslari kuchsizlandi va yemirildi. Bu dushmanning asl maqsadlari nima ekanligi ayon bo`ldi: uning tirnoqlari va tishlari mamlakat badaniga qattiq botdi. Men uchun ulardan qasosni faqat o`glim Manguberdi olishi mumkin. Shu uchun, mana, uni taxtim vorisi qilib tayinlamoqdaman. Sizlar ikkalangiz esa unga bo`ysunishlaringiz va amriga quloq osishlaringiz kerak" deydi va qilichini Jaloliddinga topshiradi. O`zi esa bir necha kundan keyin vafot etadi. [5. – B.112.].

Bu paytda Gurganchni har tomondan dushman o`rab olgan edi. Jaloliddin esa ikki ukasini olib Xorazmga yetib keladi. Ular bilan birga yetmishga yaqin otliq lashkarlar bor edi. Xorazmga yaqinlashganida xorazmliklar ularni otlar, qurol-yarog`lar, tug`lar bilan kutib oldilar [5. – B.113.]. Ularning kelishi go`yoki barcha chalkashliklarga barxam berdi. Aholi

ularni kelishidan quvondilar. Shunday bo'lsa ham ba'zi qavmlar Jaloliddinga bo'ysunishni hohlamadi. Jaloliddin esa ular bilan uchrashishdan tashvishga tushar edi.

Iroq tomonda mo'g'ul xabarini eshitdi. Yolog' degan kishini Xorazm dashtiga inilari O'zloq sulton, Go'rxon, Xumortegin va Temur mulki sohibi O'g'ul huzuriga jo'natdi. U yerda to'son ming qattol jangchi turardi. O'zi Niso yo'li bilan Shodimog' sari yo'naldi. Ustivorga yetgach, bir to'da mo'g'ul lashkariga duchor bo'ldi. Shom tushguncha jang qildilar. Qorong'u tun charx uzra etagini tortganda Sulton Jaloliddin shoshilinch ravishda Shodimog' tomonga jo'nadi [3. – B.176.]. Sulton Jaloliddin Shodimog'ga yetgandan keyin uch kun shu yerda turib qoldi. Bu yerda qurol aslahasini hozirlash bilan band bo'ldi. Bu yerdan keyin Parvon yo'li orqali otasi unga bag'ishlagan G'azna tomonga yo'l oladi. Jaloliddin G'aznaga yetib borganidan keyin otasi sulton Muhammad Xorazmshohning tarqalib ketgan qo'shini uning atrofida yig'iladi. Mirzo Ulug'bek o'zining „To'rt ulus tarixi“ asarida shunday deydi: „Har tomondan lashkar uning atrofiga kelib to'plandiki, uningdek mextar Eronda yo'q edi“ [3. – B.177.]. Hirot maliki ham Tulining hujumidan yengilganligi sababli o'z qavmi g'uriylar bilan birga sulton Jaloliddinga kelib qo'shiladilar.

Xorazmshoh sulton Jaloliddin yurtini vayron qilgan, xalqini qonga botirgan hamda janglarda halok bo'lgan ukalari Rukniddin, O'zlog'shoh, Oqshoh uchun Chingizxondan shafqatsiz o'ch olish uchun ahd qilgan edi. Niso shahrida bo'lgan jangda Jaloliddinning uch yuz kishilik lashkarini yetti yuz mo'g'ul qurshab oladi. Xorazmshohning lashkari bu jangda mo'g'ullarni tor mor qiladi. Ushbu birinchi g'alabadan so'ng, Jaloliddinga uning amakisi Amin al-Mulk o'n minglik askari bilan kelib qo'shildi [4. – B.23.].

Sulton Jaloliddin g'alabalari uning atrofiga vatanparvar kuchlarni birlashtira boshladi. Xalaj qabilasi boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, Balx hokimi A'zam malik, afg'on ko'ngillilari sardori Muzaffar malik, qarluqlar yetakchisi Xasan Qarluq minglab lashkari bilan Jaloliddin qo'shiniga kelib qo'shildilar [4. – B.24.].

Ushbu yig'ilgan qo'shinga Sulton Jaloliddin boshchilik qilar edi. Mo'g'ullarning qirq besh ming lashkardan ortiq qo'shini Jaloliddinning qoshini bilan Panjsher vodiysidagi Parvon dashtida to'qnashadi. Mo'g'ul askarlarini tajribali sarkarda Shiki Xutuxu no'yon boshqarar edi. Jaloliddin qo'shinining o'ng qanotida Temur Malik, chap qanotida Sayfuddin Ig'roq, o'zi esa markaziy qismiga esa o'zi boshchilik qiladi. Bu jangda ham Jaloliddin g'alaba qozonadi va mo'gul lashkarboshisini qochishga majbur qiladi. O'ziga munosib raqib va xavfli dushmani ko'rgan Chingizxon keyingi jangda juda katta lashkar bilan yurish boshladi. Bu vaqtda esa Jaloliddinning lashkarboshilari o'lja talashib o'zaro urishib ketishadi. Xorazmshoh esa ularni murosaga keltira olmaydi. Qarluqlar, afg'onlar, xalajlar sardorlari Jaloliddin qo'shinlarini tark etadi. Hindistonda Sind daryosi qirg'og'ida Chingizxon va Jaloliddin qo'shinlari yana to'qnash keladi. 1221-yil 25-noyabr kuni ikki o'rtada shiddatli jang boshlanadi. Urushning uchinchi kunida Jaloliddin tomonida 700 lashkar qoladi. Shunday bo'lsa ham u jangni davom ettiradi. Uni jasoratidan hayratga tushgan Chingizxon shunday deydi: - Bunday o'g'ilga ota bo'lmoq baxt. Bunday o'g'li bor otaning armoni bo'lmaydi. Sultonga o'q otmanglar, uni biror – bir xiyla bilan tiriklayin tutinglar [4. – B.25.].

Jaloliddin daryo tomonga ot choptirib boradi. Oldidan uning onasi, xotini, kanizaklari yugurib chiqadi. Ular sultondan o'zlarini dushman qo'lida tirik qoldirmasda, o'ldirib ketishini yolvorishadi. Bunga chiday olmagan Jaloliddin askarlariga daryoni imo qiladi. Askarlari uni

soʻzsiz tushunib hukmdorni oilasini hamda oʻzlarini daryoga tashlashdi. Jaloliddinning oʻzi ham otda daryoga sakraydi. Narigi qirgʻoqqa oʻtib oladi. Chingizxon Jaloliddinga qarshi oʻq uzdirmaydi, – agar shunday oʻgʻlim boʻlganda edi deb aytadi. Bungacha chingizxon hech bir hukmdor yoki sarkardaga tan bermagan va oʻziga munosib raqib koʻrmagan edi. Sind daryosi boʻyidagi jang eng halokatli janglardan biri sifatida tarixda qoldi. Jaloliddin Sind daryosidan kechib oʻtganidan soʻng qolgan-qutgan jangchilarini toʻplab, Shimoliy Hindiston hududida bir qancha davlatlar hukmdorlari bilan munosabat oʻrnatishga harakat qildi. Uning ayanchli ahvolidan Jud togʻlarida joylashgan Shatra viloyati podshohi foydalanmoqchi boʻldi. Ming otliq va besh ming piyoda askari bilan Jaloliddinga hujum qildi. Bu jangda Jaloliddin va uni askarlari gʻolib boladi, hindlarning askarlari tarqatib yuboriladi. Bu gʻalabadan keyin sultonni birinchi boʻlib Sind, Uchcha, Moʻlton, Lohur va Peshovar hokimlari tan oldi.

Birozdan soʻng, Jaloliddinning ukasi Pirshoxni tashlab ketgan amirlari Sanjaqonxon, Elchi Pahlavon, Oʻrxon, Sayirja va Tekchoroq xonkishilar ham oʻz askarlari bilan kelib unga qoʻshildilar [2. – B.201.]. Jaloliddin har tomondan madad olganidan soʻng oʻz qoʻshinlarini Qubachaning mulklari tomon surdi. Uzoq davom etgan qamaldan soʻng bir necha shahar, Parasravor va Tarnuj qalʼalarini qoʻlga kiritdi. Mulklaridan ayrilgan Qubacha Shimoliy Hindiston hokimi sulton Shamsiddin Eltutmish al-Muʼizzidan yordam oladi va yana urishishga qaror qiladi. Biroq yengiladi. Bu orada Shamsiddin Eltutmish tomonidan ham hujum boʻladi. Eltutmish 30 ming otliq, 100 ming piyoda, 300 ta fil bilan unga qarshi chiqadi, ammo tez orada Jaloliddinga xayrihox ekanligini bildirib, harakatni toʻxtatadi. Jaloliddin Hindistondaligida oʻz nomidan kumush tangalar zarb etadi, barcha mahalliy mulklarda uning nomiga xutba oʻqiladi. Biroq shimoliy Hindiston hokimlarini kelgindi sultonga bogʻliqlik qanoatlantirmasdi. Eltutmish, Qubacha va boshqa hokimlar – rojalar, lashkarboshilar va oʻlkalarning noiblari Jaloliddindan qutilish haqida kelishib oldilar [2. – B.203.].

Ular bilan boʻlgan qator janglarda qoʻli baland kelgan boʻlganiga qaramay, bu yerda muqim oʻrnashish, ittifoqchilar topish mushkul ekanligini anglab, u yerdan Eronga, 1224 yili esa Ozarbayjonga kelib, uni zabt etdi. Shu vaqtdan eʼtiboran Jaloliddinning Ozarbayjon, Eron, Iroq, Gurjiston va Rum hududlaridagi faoliyati boshlandi [1. – B.27]. Jaloliddinning Bagʻdod xalifalari, Koʻniya sultoni Alouddin Qayqubod, uch aka – uka Ayyubiylar, Gurjiston podshosi Rusudana va boshqa hukmdorlar bilan ittifoq tuzish yoʻlidagi harakatlari natijasiz tugadi. Jaloliddinning amalga oshmay qolgan urinishlariga bir necha shaxslarning bilib – bilmay qilgan xatolari va ochiqchasiga qilgan toʻsqinliklari sabab boʻldi. Ular orasida Jaloliddinning vaziri Sharofulmuluk alohida oʻrin tutadi.

Jaloliddinning kuchsizlanganidan xabar topgan Ismoililar bu haqida Moʻgʻullarga xabar berdilar. 1231 yil avgust oyida moʻgʻullar uning qarorgohiga qoʻqqisdan hujum qilishdi. Jaloliddin amiri Oʻrxonga dushmani chalgʻitishni buyurib, yolgʻiz oʻzi togʻ tomon ot qoʻyadi. Orqadan yetib kelgan ikki moʻgʻulni oʻldirib, yoʻlida davom etdi. Diyorbakr qishloqlaridan birida uni kurd qaroqchilari qoʻlga tushiradilar. Bulardan biri Jaloliddinning sulton ekanligiga ishonmay va Axlot qamali paytida xorazmiylar tomonidan oʻldirilgan akasining oʻchini olish maqsadida nayza sanchib uni oʻldiradi [1. – B.28].

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati murakkab davrni oʻz ichiga oladi. Buyuk sarkarda va jangchi sifatida qaralsada uning yuritgan diplomatiyasi oʻzi oʻylaganchalik natijalarni bermagan. Bunga sabab oʻz atrofida yigʻilgan

kuchlarni sadoqatsiz ekanligida. Shuning uchun ham har borgan joyida yaqinlari tomonidan xiyonatga uchrab turgan, bu esa ittifoqchilaridan ham ayrilishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lsa ham sulton Jaloliddin Manguberding qahramonliklari, yurti uchun qilgan harakatlari sababli bizning tariximizda chuqur iz qoldirdi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Буриев О. Тошев Н. Жалолiddин Мангуберди. - Тошкент: Фан, 1999. – 70 б.
2. Бунёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати. – Тошкент, 1998. – 256 б.
3. Мирзо Улугбек. Турт улус тарихи. – Тошкент: Чулпон, 1994. – 352 б.
4. Содиков Х. Султон Жалолiddин Мангуберди. – Тошкент: Art Flex, 2009. – 54 б.
5. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолiddин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. – Тошкент: Ёзувчи, 1999. – 432 б.